

# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2023-YIL — INSONGA E’TIBOR VA SIFATLI TA’LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2023-yil 22-sentabr, № 199 (8542) Juma

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# IKKINCHI XALQARO HUNARMANDCHILIK FESTIVALI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli festival ishtirokchilari!

Qadrli do‘stlar!

Xonimlar va janoblar!

Siz, azizlarni Xalqaro hunarmandchilik festivalining tantanali ochilishi bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etib, barchangizga o‘zimning chuqur hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etishdan g‘oyat mamnunman.

Ushbu anjumanda jahonning 70 ta davlatidan 260 nafardan ziyod mohir hunarmand va ustalar, taniqli ilm, madaniyat va san’at namoyandalari, ommaviy axborot vositalari xodimlari hamda nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etayotgani unga dunyo miqyosida qiziqish va e’tibor katta ekanidan dalolat beradi.

Ma’lumki, har qaysi xalqning amaliy san’ati uning boy o‘tmishi va madaniyati, azaliy qadriyatlari, orzu-intilishlarini o‘zida yaqqol aks ettiradi.

Qariyb uch ming yillik tarixga ega bo‘lgan bizning jonajon Vatanimiz ham hunarmandchilik sohasidagi o‘lmas an’analari, mohir usta va hunarmandlari bilan shuhrat qozonib keladi.

Ayniqsa, mana shu anjumanga mezbonlik qilayotgan go‘zal Farg‘ona viloyati, yurtimizning qadimiy shaharlaridan biri bo‘lmish Ho‘qandi latif o‘zining bu boradagi betakror merosi, tarixiy maktablari bilan alohida ajralib turadi.

Biz bu o‘lkada kulolchilik, ipak va abrli matolar ishlab chiqarish, yog‘och o‘ymakorligi, ganchkorlik va naqqoshlik san’ati, pichoqchilik, do‘ppido‘zlik kabi hunar turlari keng rivojlanib, milliy brend darajasiga ko‘tarilgani bilan faxrlanamiz.

Jahon hunarmandchilik kengashi qaroriga ko‘ra, Qo‘qon, Buxoro va Marg‘ilon kabi ko‘hna shaharlarimizga Hunarmandchilik shahri maqomi berilganini biz asrlar mobaynida avloddan-avlodga bezavol o‘tib kelayotgan boqiy an’ana va qadriyatlarimizning yuksak e’tirofi sifatida qabul qilamiz.

Aziz do‘stlar!

Keyingi yillarda yurtimizda xalq badiiy va amaliy san’atini yanada rivojlantirish, bu borada tarixiy an’analarni izchil davom ettirayotgan mohir ustalarning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor berilmoqda.

Bu haqda gapirganda, qisqa muddatda bir qator Farmon va qarorlar qabul qilinib, ushbu soha vakillariga zarur imkoniyat va imtiyozlar yaratib berilganini ta’kidlash lozim. Ana shunday sa’y-harakatlarimiz tufayli milliy hunarmandchilik san’ati jadal rivojlanmoqda. Buning tasdig‘ini so‘nggi yetti yilda “Hunarmand” uyushmasi a’zolari 7 barobardan ziyod ko‘payib, 10 ming nafardan salkam 80 ming nafarga yetgani, sohada band bo‘lganlar esa 280 ming nafarni tashkil etayotgani yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Soha rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan, iqtidorli shogirdlar tarbiyalab, o‘z ijodiy maktablarini yaratgan qo‘ligul ustalarimizning sharafli mehnati davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan munosib e’tirof etilmoqda. Yuzlab usta va hunarmandlarimiz Vatanimizning yuksak mukofotlari — faxriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlanmoqda.

Hunarmandchilik xalqimiz kundalik hayotidan tobora mustahkam o‘rin egallamoqda. Mamlakatimizda shu yo‘nalishda yuzdan ziyod festival va yarmarkalar, savdo ko‘rgazmalari va boshqa tadbirlar muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

Yurtimizda ikkinchi bor o‘tkazilayotgan Xalqaro hunarmandchilik festivaliga uyg‘un holda Rishton tumanida Xalqaro kulolchilik forumi bo‘lib o‘tayotgani ham bejiz emas. Nega deganda, Rishton nafaqat mamlakatimiz, balki butun Markaziy Osiyoda kulolchilik markazi sifatida ma’lum-u mashhurdir.

Albatta, mana shunday anjumanlar xalq amaliy san’atiga daxldor qadimiy merosimizni asrab-avaylash, uni dunyo miqyosida keng targ‘ib etish, yoshlarimizni nodir kasb-hunarlarga hurmat va mehr ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga egadir.

Shu ma’noda, bugun ochilayotgan ushbu festival san’at va do‘stlik, iste’dod va mahorat bayrami sifatida barcha ishtirokchilar va xalqimiz qalbida yorqin iz qoldiradi, deb ishonaman.

Siz, hurmatli festival qatnashchilariga sihat-salomatlik, oliyjanob faoliyatingizda yutuq va omadlar, anjuman doirasidagi ilmiy-amaliy konferensiya ishiga esa muvaffaqiyatlar tilayman.

Xush kelibsiz, qadimiy va betakror O‘zbekistonga, xush kelibsiz, go‘zal Qo‘qon shahriga!

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

# SAN’AT VA DO‘STLIK, ISTE’DOD VA MAHORAT BAYRAMI

*Avval xabar berganimizdek, Qo‘qon shahrida II xalqaro hunarmandchilik festivali bo‘lib o‘tmoqda.*

*Festivalning tantanali ochilish marosimi katta shodiyonaga aylandi. Nufuzli mehmonlar ishtirokida rasmiy tasma qirqildi. Shundan so‘ng shaharning keng va orasta ko‘chalari bo‘ylab bayram tadbirlari uyushtirilib, qatnashchilar tantanali yurishda ishtirok etdi.*

➔ 3

# TINCHLIK VA FAROVONLIKNI TA’MINLASHGA QARATILGAN TASHABBUSLAR

*Yangilanayotgan O‘zbekistonning tashqi siyosatida ochiqlik va pragmatik yondashuvlar ko‘zga yaqqol tashlanmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning so‘nggi haftalarda bo‘lib o‘tgan muhim siyosiy tadbirlarda ilgari surgan taklif va tashabbuslari buni yana bir bor tasdiqladi. Jumladan, Prezidentimizning Markaziy Osiyo mamlakatlari davlat rahbarlarining beshinchi Maslahat uchrashuvi hamda Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta’sischi davlatlari rahbarlarining kengashi, BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasi, “C5+1” formatidagi Markaziy Osiyo va AQSH yetakchilarining sammiti va boshqa oliy darajadagi tadbirlardagi ishtiroki, ularda bildirgan fikr va g‘oyalari yangi O‘zbekiston taraqqiyotining zamonaviy bosqichida tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini qayd etish imkonini beradi.*



## Nuqtai nazar

Avvalo, ta’kidlash joizki, davlatimiz rahbari xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlarning uchrashuv va munozaralarida, majlislarida davrimizning eng dolzarb masalalari bo‘yicha o‘z taklif va tashabbuslarini ilgari surib keladi. Birgina misol: Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasi sessiyalarida to‘rt marotaba ishtirok etib, inson haq-huquqlarini himoya qilish, Markaziy Osiyoda tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta’minlash, Afg‘onistondagi vaziyatni izga solish, iqlim o‘zgarishi, ekologiya va suv muammolarini yechish bilan bog‘liq mintaqa va global olamning hayotiy manfaatlariga daxldor takliflarni ilgari surgan va ularning aksariyati BMTning rezolyutsiyalari sifatida qabul qilingan.

Davlatimiz rahbari bu safar ham bashariyat farovonligi va taraqqiyoti yo‘lidagi to‘siqlarni ta’kidlash, ularning yechimini taklif etish bilan bir qatorda mamlakatimizning so‘nggi yetti yil mobaynida erishgan yutuqlari va ortga qaytmas islohotlariga jahon hamjamiyati e’tiborini qaratdi.

Ta’kidlanganidek, shu yil 30-aprelda umumxalq referendumi asosida qabul qilingan Konstitutsiyaga ko‘ra huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat deb e’lon qilingan mamlakatimiz ***“Inson qadri va manfaatlari uchun”*** degan ezgu g‘oya asosida tub islohotlar yo‘lidan dadil ilgari boraveradi. Millati, tili va dinidan qat’i nazar, barcha fuqarolar tengligi, inson huquqlari, so‘z va vijdon erkinligi prinsiplariga amal qilayotgan mamlakatimiz iqtisodiyoti, global tahdidlarga qaramasdan, barqaror o‘sish sur’atlarini namoyon etmoqda. So‘nggi olti yilda yalpi ichki mahsulot hajmi bir yarim martadan ortiq ko‘paydi.

Prezidentimiz boshchiligida xalqimizning turmush darajasini oshirishga qaratilgan siyosat tufayli mamlakatimizda 2017-yildan buyon kambag‘allik ikki barobarga kamaydi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida bu ko‘rsatkichni 7 foizga tushirish rejalashtirilgan.

➔ 2

# EZGU NIYATLARNING MUSTAHKAM POYDEVORI

*Bismillahir Rohmanir Rohiym.*

*Alloh taologa shukrki, yurtimizdagi inson manfaatlariga qaratilgan islohotlar dunyo hamjamiyati tomonidan ham munosib e’tirof etilmoqda, taqdim qilingan taklif-tashabbuslar hayotiyligi bilan muhim ahamiyat kasb etayotir. Natijada mamlakatimiz dunyo miqyosida o‘z o‘rni, o‘z so‘ziga ega bo‘lib, dovrug‘i yanada yuksalmoqda.*

## Munosabat

Prezidentimizning AQSHga qilgan safari ham samarali muloqotlar, manfaatli uchrashuvlar va foydali kelishuvlarga boy bo‘ldi. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida jahon hamjamiyatini bugungi kunda muhim bo‘lgan masalalarga e’tibor qaratib, bir qator takliflarni ilgari surgani okeanorti safarining eng muhim voqeasi bo‘ldi.

Ta’kidlash kerakki, so‘nggi yillarda O‘zbekiston va BMT o‘rtasidagi hamkorlik misli ko‘rilmagan yuksak darajaga chiqdi. Birgalikda qariyb 140 ta dastur va loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilgani, ayniqsa, O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 6 ta rezolyutsiyasi qabul qilingani fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston BMTning bir qator nufuzli tuzilmalariga saylandi va ularning ishida faol ishtirok etmoqda. Birgalikda global kun tartibiga oid, jumladan, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, turizmni rivojlantirish, kambag‘allikka va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha yirik xalqaro tadbirlar o‘tkazilmoqda.

Yurtboshimiz o‘z chiqishida “Biz huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo‘lmish Yangi O‘zbekistonni barpo etish siyosatini qat’iy davom ettirmoqdamiz. Mamlakatimiz “Inson qadri va manfaatlari uchun” degan ezgu g‘oya asosida demokratiya va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tub islohotlar yo‘lidan dadil ilgari bormoqda”, deya ta’kidladi.

Darhaqiqat, bugun yurtimizning barcha jabhasida izchil islohotlar davom etmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, xalqimizning turmush farovonligi oshishiga, yurt ravnaqi va dunyo miqyosida munosib o‘rin egallashida muhim omil bo‘layotir. Ayniqsa, barcha yo‘nalishda “Inson qadri va manfaatlari uchun” degan tamoyil asosida ish olib borilayotgani bu islohotlarning yanada samarali kechishiga, xalqimizning roziligiga zamin bo‘lmoqda.

Aholi bilan ishlashda mahallalar, oilalar kesimida ish olib borilayotgani, barcha mutasaddi tashkilot vakillari qatorida diniy soha xodimlari, xususan, imom-xatiblar ham xalq bilan muloqotni yo‘lga qo‘ygani bu ishlarning yanada samarali kechishida muhim o‘rin tutmoqda.

Prezidentimiz o‘z nutqida islom dinining insonparvarlik mohiyatini keng targ‘ib etish, diniy bag‘rikenglikni qaror toptirish va turli tahdidlarga qarshi birgalikda kurashishga ham alohida to‘xtaldi.

So‘nggi paytlarda ayrim mamlakatlarda ko‘zga tashlanayotgan diniy toqatsizlik, islomofobiya holatlariga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi ta’kidlandi. Haqiqatan, keyingi paytlarda dunyoda islomni yomonotliq qilishga urinishlar, turli fitnalar keng tarqalmoqda. Aslida, bularning dinimizga umuman aloqasi yo‘q. Islom odamlarni Yer yuzida tinchlik-osoyishtalikda ahil-inoq bo‘lib yashashga chorlaydi. Shu maqsadda har qanday holatda ham rahm-shafqat va bag‘rikenglik kabi yuksak insoniy fazilatlarni targ‘ib etadi.

➔ 3

## Dunyo nigohi

# O‘ZBEKISTON PREZIDENTI TOMONIDAN ILGARI SURILGAN TAKLIFLARNING HAYOTGA TATBIQ ETILISHI HOZIRGI MURAKKAB GEOSIYOSIY DAVRDA IJOBIY NATIJALARGA OLIB KELISHI ANIQ

*Xitoy yetakchi tahlil tuzilmalarining ekspertlari Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi haqida.*



**Li SZIGO,**
**XXR Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Xitoy Xalqaro muammolar akademiyasining Yevroosiyo instituti direktori:**

— Shavkat Mirziyoyev 2016-yil oxirida davlat rahbari etib saylanganidan so‘ng O‘zbekistonda tub o‘zgarishlar ro‘y berdi.

O‘zbekiston rahbari BMT Bosh Assambleyasining Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan 78-sessiyasidagi nutqida mamlakatning kelgusi yillarga mo‘ljallangan siyosatiga oid strategik qarashlarini ham bayon etdi. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev ichki islohotlarni ilgari surish va milliy boshqaruv tizimini takomillashtirish, iqtisodiyotni global mehnat taqsimotiga integratsiya qilish va JSTga muddatidan oldin a’zo bo‘lish, yaxshi qo‘shnichilik, hamkorlikni yanada mustahkamlash masalalariga to‘xtalar ekan, Markaziy Osiyodagi sheriklik, shuningdek, mintaqada ekologik xavfsizlik sohasida xalqaro hamkorlikka alohida urg‘u berdi.

O‘zbekiston rahbari tomonidan ilgari surilgan g‘oyat muhim tashabbuslarni alohida qayd etish lozim. Bular BMT Bosh kotibi tomonidan ilgari surilgan “Ish o‘rinlarini yaratish va ijtimoiy himoya global akseleratori” borasidagi tashabbusi doirasida tajriba almashish uchun 2024-yili BMT shafeligida “Ijtimoiy himoya: barqaror taraqqiyot sari yo‘l” butunjahon konferensiyasini o‘tkazish, BMT huzurida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha ishchi guruh tashkil etish, ayollarning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalalarini muhokama qilish va tajriba almashish uchun kelgusi yili O‘zbekistonda Osiyo xotin-qizlari forumini o‘tkazish hamda YUNESKO shafeligida Dinlararo muloqot va bag‘rikenglik xalqaro markazini tashkil etish hamda boshqa takliflardir.

➔ 2

## Aks sado

# EKOLOGIYA VA SUV RESURSLARI MUAMMOSI JAHON HAMJAMIYATI E’TIBORIDA

*Shu kunlarda jahon hamjamiyatining diqqat e’tibori BMT Bosh Assambleyasiga qaratildi. Chunki ushbu tashkilot sammitida sayyoramizning ertangi kuni, kelajagi, insoniyat taqdiriga, ko‘p jihatdan uning farovonligiga taalluqli dolzarb masalalar muhokama markazida bo‘ldi.*

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida nutq so‘zladi. Zero, dunyoda kechayotgan to‘qnashuv va ziddiyatlar, inqirozlar barchani junbushga solayotgan, geosiyosiy, ekologik tanazzul, davlatlar o‘rtasidagi ishonchsizlikdan barcha tashvishda bo‘lib turgan bir paytda, sammitda ilgari surilgan tashabbus hamda g‘oyalar istiqbolda muhim ahamiyat kasb etadi. Boz ustiga, dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar va oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan turli ziddiyatlar, global siyosiy hamda iqtisodiy beqarorlik, turli zamonaviy tahdidlar mintaqalar va davlatlar o‘rtasidagi hamjihatlik hamda o‘zaro manfaatli sheriklikni yanada kengaytirishni taqozo qilayotgani ayni haqiqat.

Davlatimiz rahbari O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish, inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash, xalq farovonligini oshirish hamda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish, ta’lim sohasini yuksaltirish, yaxshi qo‘shnichilik, barqarorlik, o‘zaro hamkorlik, xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtiroki masalalarida uddalangan ishlar xususida to‘xtalib o‘tdi. Ayni chog‘da ekologik vaziyat hamda suv muammosiga alohida e’tibor qaratdi va kelgusida bajarilishi lozim bo‘lgan aniq takliflarni ilgari surdi.

➔ 3

# SANGARDAK MO‘JIZASI

## HAVOSI DARDGA DAVO, GIYOHI TANGA MALHAM



*Prezidentimizning alohida g‘amxo‘rligi va e’tibori tufayli hozirgi kunda kasaba uyushmalarining mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni hamda ta’siri tobora ortib bormoqda.*

*O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi fuqarolarning huquq va erkinliklarini, ularning qonuniy manfaatlarini ta’minlash, aholining ehtiyojmand qatlamini hamda mehnat jamoalari a’zolarini ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash ishlarida faol ishtirok etish bilan birga, xalqimizning salomatligini tiklash, mazmunli hordiq chiqarishini ta’minlashda qator loyihalarni amalga oshirib kelmoqda.*

## Ko‘z o‘ngimizdagi o‘zgarishlar

Tashkilot tomonidan Surxon vohasida, Sariosiyo tumanining Hisor tog‘lari bag‘rida jahon standartlari talablari darajasida barpo etilgan “Sangardak” sanatoriysi bu boradagi amaliy ishlardan biridir.

Darhaqiqat, keyingi yillarda aholi salomatligini mustahkamlash, tibbiy xizmat sifatini oshirish, odamlarimizning dam olishi uchun munosib sharoitlarni yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

➔ 4

# HAMKORLIK TARAQQIYOTGA KENG YO‘L OCHADI

*O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning AQSHga tashrifi, BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so‘zlagan nutqi, mazkur nufuzli xalqaro siyosiy tadbir doirasida AQSH va Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchilari sammitida ishtiroki, xorijiy davlatlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar mashhur kompaniyalar rahbarlari bilan qator ikki tomonlama o‘tkazgan uchrashuvlari mamlakatimiz xalqaro munosabatlarda mintaqaviy va global darajada faol tashqi siyosatni yo‘lga qo‘yayotganidan dalolat beradi.*

Ochig‘ini aytish kerak, bunday izchil, aniq va konstruktiv tashqi siyosatni xalqaro hamjamiyat sinchkov kuzatgan holda yuksak e’tirof etmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbarining Yevropa Kengashi prezidenti Sharl Mishel bilan uchrashuvida Yevrokengash prezidenti Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni ilgari surish, ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va sheriklik munosabatlarini mustahkamlashda O‘zbekiston rahbari yetakchi rol o‘ynayotganini qayd etdi.

➔ 3

# TINCHLIK VA FAROVONLIKNI TA’MINLASHGA QARATILGAN TASHABBUSLAR

← 1

Ta’lim tizimi tubdan o‘zgardi. O‘tgan olti yilda maktabgacha ta’limdagi qamrov 21 foizdan 70 foizga, oliy ta’limda esa 9 foizdan 38 foizga yetdi. 2030-yilga qadar har bir bolaning bog‘chaga qatnashi, maktabni bitirayotgan har ikki o‘quvchining biri esa oliygohda o‘qishi uchun imkoniyat yaratiladi. Aholini ichimlik suvi, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa ijtimoiy xizmatlar bilan ta’minlash ko‘lamini bir necha bor oshirish belgilangan. Ushbu maqsadlar BMTning 2030-yilgacha bo‘lgan Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohangdir.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tomonidan ilgari surilgan “Ish o‘rinlarini yaratish va ijtimoiy himoya global akseleratori” borasidagi tashabbusni qo‘llab-quvvatlaydi. Mazkur tashabbus doirasida tajriba almashish uchun ***2024-yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida “Ijtimoiy himoya: barqaror taraqqiyot sari yo‘l” butunjahon konferensiyasi***ni yurtimizda o‘tkazish taklif qilindi.

Yig‘ilish ishtirokchilarining e’tibori mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish, majburiy va bolalar mehnatiga to‘liq barham berish borasida erishilgan natijalarga qaratildi. Bu boradagi sa’y-harakatlar samarasi o‘laroq xalqimiz paxta qulligidan ozod bo‘ldi. Paxta siyosati tufayli ne-ne norasida farzandlar, xotin-qizlar jabr ko‘rmagan deysiz. Bu so‘zlarning ahamiyatini bugungi avlod chuqur his qilmasligi mumkin. Ammo bir asr mobaynida O‘zbekistonda millionlab insonlar paxta terimiga majburiy ravishda jalb etib kelindi. Har yili sentabr oyidan dekabrgacha aholining asosiy qismi — o‘qituvchi va shifokorlar, tadbirkorlar, ishchi va xizmatchilar, eng achinarlisi, maktab o‘quvchilari va talabalar paxta terimiga safarbar etilar edi. Natijada o‘zbek paxtasiga boykotlar e’lon qilingan, mamlakat esa yillar davomida “qora ro‘yxat”larga kiritilgan edi.

Darhaqiqat, Prezidentimizning qat’iy siyosiy irodasi bilan endi bularning barchasi o‘tmishga aylandi. Butun umri davomida eng qimmatli vaqtini o‘qish va izlanishlarga sarflamasdan, paxta dalalarida sarson kezgan katta avlod vakillari “oq paxtaning qora dog‘lari”ni juda yaxshi eslashadi. O‘sha davr iztiroblari va fojialari bilan bog‘liq asoratlar hanuz bizni qiynab kelayotgani ham rost. Hammamiz yaxshi bilamiz, paxtachilik qanchalik og‘ir mehnat bo‘lganini. Hosilni yig‘ib olish uchun qimirlagan jon borki, dalaga safarbar qilinardi. Hatto shunday davrlar bo‘lganki, odamlar janozalardan paxta dalasiga haydab ketilgan. To‘y-u marosimlarga paxta mavsumida qat’iy cheklovlar qo‘yilgan. Hosilni terib olish ishlari qahraton qishgacha cho‘zilishi oddiy holga aylangan.

Istiqlolga erishganimizdan keyin ham 25 yil davomida paxta qutqusidan xalos bo‘lmadik. Xalqaro jamoatchilik, ayniqsa, yirik fond birjalarining egalari bo‘lgan AQSH va Buyuk Britaniya kabi davlatlar o‘zbek paxtasini pilla bilan bir qatorda majburiy mehnat mahsuli bo‘lgan tovarlar ro‘yxatida qoldirdi. Xalqaro hamjamiyat O‘zbekistonga bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berish talabini qo‘ydi. AQSH Mehnat vazirligi dunyo bo‘ylab “Bolalar mehnati va majburiy mehnat natijasida yetishtirilgan mahsulotlar ro‘yxati”ni tuzishni boshlagan 2009-yildan buyon O‘zbekiston ayni ro‘yxatdan o‘rin olib kelayotgandi. Xalqaro tashkilotlar hisobotida 7 yashar maktab bolalarigacha muntazam ravishda paxta yig‘im-terimiga jalb qilib kelingani tinmay tanqid ostiga olinardi. Bolalar og‘ir sharoitlarda paxta terish va yashashga majburlangan, ularga haq to‘lanmagan yoki juda kam to‘langan yoxud ishlagan haqlari ovqat va yotoq uchun ushlab qolingan, paxtaga chiqmagan bolalar jazolangan, degan nadomatlar yog‘dirildi.

O‘zbekiston paxta sanoatida bolalar mehnatidan foydalanish ko‘lami 2016-yildan qisqara boshladi va 2017-yildan bolalarni paxtaga majburan olib chiqish holatlari bartaraf etildi. Odil rahbar Shavkat Mirziyoyevning sa’y-harakatlari bilan nafaqat bolalar majburiy mehnatidan, balki o‘qituvchi va shifokorlarni ham ommaviy paxta dalalariga haydash kampaniyasiga butkul chek qo‘yildi. Prezident Mirziyoyevning bu borada siyosiy irodani namoyish etganini butun dunyo olqishladi. Yangilangan O‘zbekiston Konstitutsiyasida ham majburiy va bolalar mehnati taqiqlanishi belgilab qo‘yildi, buning uchun jinoiy javobgarlik qat’iylashtirildi.

Ahamiyatlisi, davlatimiz rahbari majburiy va bolalar mehnatiga qarshi kurashni butun dunyo miqyosida kuchaytirishga da’vat etdi. Zero, bugungi kunda Yer yuzida 100 — 120 million atrofida yosh bolalar majburiy mehnatga majburlanmoqda. Bu aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmas holat. Xalqimiz bejiz aytmagan: bolaning begonasi bo‘lmaydi. Qisqacha aytganda, BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi a’zosi sifatida O‘zbekiston inson huquqlariga rioya etish masalasida nafaqat dunyoga namuna bo‘lmoqda, balki boshqalarni ham bunga rioya qilishga chaqirmoqda.

O‘zbekiston insonning qadri va huquqlarini ta’minlashda, unga rioya etishda sezilarli natijalarga erishganini BMT va xalqaro jamoatchilik ham e’tirof qilayotgani bor gap. Antoniu Guterrish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Bosh Assambleya 78-sessiyasidagi nutqini yuksak baholab, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlar dasturini qo‘llab-quvvatlashini, davlatimiz rahbari dolzarb global va mintaqaviy muammolarga yechim topish borasida ilgari surgan tashabbus va takliflar muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi.

Agar keyingi 3-4 yillik tarixga boqsak, O‘zbekiston BMTning bir qator nufuzli tuzilmalariga, xususan, BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi a’zoligiga saylandi va ularning ishida faol ishtirok etmoqda. BMT bilan birgalikda global kun tartibiga oid, jumladan, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, turizmni rivojlantirish, kambag‘allikka va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha yirik xalqaro tadbirlar o‘tkazilmoqda. Bosh kotib yangi “O‘zbekiston — 2030” islohotlar strategiyasiga kiritilgan maqsad va vazifalarning ko‘lamdorligini, ular Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan to‘liq hamohangligini alohida ta’kidlab, BMT va uning barcha institutlari ushbu dasturiy hujjatni amalga oshirishga ko‘maklashishga tayyorligini bildirdi. Bu ham so‘zda yoki qog‘ozdagina emas, amalda islohotlar o‘tkazayotgan O‘zbekistonga nisbatan xalqaro ishonchning yuksak e’tirofidir.

Yana bir raqamga murojaat qilaylik. O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 6 ta rezolyutsiyasi qabul qilindi, Orolbo‘yi mintaqasi aholisini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus Trast fondi ta’sis etildi.

Xalqaro valyuta fondi boshqaruvchi direktori Kristalina Georgiyeva O‘zbekistonda ortga qaytmas tus olgan islohotlar dasturi natijalariga yuqori baho berdi hamda mamlakatimizdagi samarali yangilanishlarni ilgari surishda yaqindan hamkorlik qilishga tayyorligini bildirdi.

## Markaziy Osiyo — tashqi siyosatimizning ustuvor yo‘nalishi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016-yil dekabrda o‘z lavozimiga kirishganidan so‘ng Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlashni tashqi siyosatda eng muhim ustuvor vazifa sifatida belgilab berdi. O‘tgan yetti yil mobaynida O‘zbekiston rahbari tashabbusi bilan mintaqa mamlakatlari yetakchilarining yuqori darajadagi tashriflari amalga oshirildi. Mintaqa davlatlari rahbarlarining siyosiy muloqoti doimiy tus oldi. Ana shunday muloqotlar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun xavfsizlik, iqtisodiyot, investitsiyalar, sayyohlik, madaniyat, sog‘liqni saqlash va ekologiya sohalarida o‘zaro manfaatli mintaqaviy va xalqaro masalalar bo‘yicha muhim qo‘shma qarorlar qabul qilinmoqda.

Tarixiy qisqa davr ichida O‘zbekistonning mintaqadagi mamlakatlar bilan munosabatlarida katta ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. O‘zbekistonning har bir qo‘shni davlat bilan munosabatlarini strategik sheriklik darajasiga olib chiqishi va hamkorlikni rivojlantirishi mintaqada nizoli holatlarni deyarli yo‘qqa chiqardi, uning investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirishga yordam berdi. Toshkent birgalikda suvdan foydalanish, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va ekologik tahdidlarga qarshi kurashish, jumladan, Orolbo‘yi muammolarini hal etishda sa’y-harakatlarni birlashtirish, mintaqaga innovatsion texnologiyalar va investitsiyalarni jalb qilish, “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etish kabi sohalarda mintaqaviy hamkorlik masalalari bo‘yicha fikr almashish maydoniga aylandi.

O‘zbekistonning yaxshi qo‘shnichilik siyosati Afg‘oniston bilan aloqalarni mustahkamlashda ham yaqqol namoyon bo‘ldi. Bugungi kunda O‘zbekiston tomonlar o‘rtasidagi muloqotga ko‘maklashib, Afg‘onistondagi tinchlik jarayonini qo‘llab-quvvatlash va ilgari surishda faol ishtirok etmoqda. Shuningdek, Afg‘oniston iqtisodiyotini tiklash va ushbu mamlakatni mintaqaviy hamda xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlarga jalb qilishga yordam beradigan muhim iqtisodiy va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirmoqda. O‘zbekistonning Afg‘onistonga nisbatan siyosati Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish istiqbollari qo‘shni Afg‘onistonda tinchlikka erishish bilan chambarchas bog‘liqligini anglashga asoslanadi.

Ta’kidlash joizki, Afg‘onistondagi tinchlik jarayoni uzoq vaqt davomida boshi berk ko‘chada qolib ketgan edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan dunyo miqyosidagi ushbu o‘tkir muammoni xalqaro hamjamiyat kun tartibiga qayta kiritishga erishildi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, xalqaro hamjamiyatning qo‘llovi bilan Markaziy Osiyo birdamlik yo‘lidan borishda davom etadi. Markaziy Osiyoni tinch va gullab-yashnayotgan hududga aylantirish O‘zbekiston tashqi siyosatida bundan buyon ham ustuvor maqsad bo‘lib qoladi.

Asosiysi, mintaqa davlatlari o‘rtasida o‘zaro savdo ikki yarim barobardan ziyod, qo‘shma korxonalar soni esa besh marta o‘sdi. Markaziy Osiyoning dunyoga ochiqligi mintaqa xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta’minlaydigan eng muhim shartga aylanmoqda.

O‘zbekiston — yoshlar mamlakati, degan iborani ko‘p ishlatamiz. Shu ma’noda, Prezident Shavkat Mirziyoyev ***Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha ishchi guruh tashkil qilish, uning doirasida “Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi — 2030” dasturini ishlab chiqish***ni taklif etdi. Chunki aholisining deyarli yarmi yosh avlod vakillari bo‘lgan Markaziy Osiyo uchun yoshlar va ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalasi, ayniqsa, dolzarb ahamiyatga ega. Darvoqe, ushbu sohada hamkorlikni kuchaytirish maqsadida Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Dushanbeda bo‘lib o‘tgan sammiti doirasida mintaqamiz mamlakatlari tomonidan O‘shlar siyosatining umumiy yo‘nalishlari haqidagi bitim imzolandi.

## Ayollar himoyasi — ezgu maqsad

Sessiya ishtirokchilari e’tibori xotin-qizlar masalasiga ham qaratildi. Bu bejiz emas. Xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishi bugungi kunning dolzarb masalasiga aylangan. Yig‘ilish ishtirokchilarining e’tibori bu borada xalqaro maydonda hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish masalalariga qaratildi. Zero, O‘zbekistonimiz milliy siyosati markazida turadigan eng ezgu maqsad oilalar mustahkamligini, ayollarimizning huquqiy himoyasi va osoyishta hayotini ta’minlashdan iborat.

Mamlakatimizda gender tenglikka erishish borasida ham tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, o‘tgan yili oliygohlarga qabul qilingan talabalarning 49 foizini qizlar tashkil etdi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi esa birinchi marta 35 foizga yetdi. Mamlakatimizda ayollar va voyaga yetmaganlarni zo‘ravonlikdan himoyalash maqsadida alohida qonun qabul qilindi. Xotin-qizlarni himoyalash, manfaatlarini ta’minlashning ilgari misli ko‘rilmagan yangicha tizimi yaratildi. Bu jihatlar xotin-qizlarning oliy ta’lim bilan qamrab olinishi, gender tenglikni ta’minlash, ayollarning ijtimoiy muhofazasi, opa-singillarimizning xizmat pillapoyalaridan yuqorilashi, tadbirkorligi, ilg‘or g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlashga doir amaliy tashabbuslar bilan bevosita bog‘liq.

Har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi aholi bandligi bilan o‘lchanar ekan, bu jarayonda ayollarni ish bilan ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Ammo bu ko‘rsatkich bo‘yicha dunyodagi ijtimoiy holatni yaxshi deb bo‘lmaydi. Ya’ni dunyoda mehnat munosabatlarida ishtirok etayotgan 40 foiz ayol turli sabablarga ko‘ra ijtimoiy himoyaga ega emas. Bu global muammoning yechimini topish jahon hamjamiyati oldidagi dolzarb vazifadir. Shu bois Prezidentimiz ***O‘zbekiston “Birlashgan Millatlar Tashkiloti — Xotin-qizlar” tuzilmasi bilan hamkorlikni yanada kengaytirish***dan manfaatdor ekanligini ta’kidlab, birgalikdagi tashabbus sifatida ayollarning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalalarini muhokama qilish va tajriba almashish uchun kelgusi yili ***O‘zbekistonda Osiyo xotin-qizlari forumini o‘tkazish***ni taklif etdi. Tan olish kerak, O‘zbekiston bu borada katta tajriba to‘plagan.

Ayniqsa, 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda gender tenglikni ta’minlash, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog‘liq muhim qoidalar o‘z aksini topdi. Jumladan, Asosiy Qonunimizda har kimning mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish huquqi kafolatlandi. Homiladorligi yoki bolasi borligi bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ish haqini kamaytirish taqiqlandi. Ayollarning nafaqat jamiyatdagi nufuzini oshirish, balki qiyin ijtimoiy sharoitga tushib qolgan, nogironligi bor, uy-joyga muhtoj, boquvchisini yo‘qotgan, farzand tarbiyasi hamda iqtisodiy ta’minot zimmasida bo‘lgan xotin-qizlarga demokratik-huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatda baxtli hayot kechirish imkoniyati kafolatlandi.

Gender tenglik prinsiplarini Konstitutsiyada belgilash davlat tomonidan ayollarga bo‘lgan alohida e’tiborni ko‘rsatish bilan birga, ularning davlat va ijtimoiy hayotdagi rolini oshirib, o‘z imkoniyatlarini namoyon etishiga xizmat qiladi. Jamiyatimizda gender tenglikni ta’minlash borasidagi izchil islohotlar samarasida xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotidagi faol ishtiroki yanada kuchayadi.

Albatta, bu natijalar kishini quvontiradi. Zero, mamlakatimiz mehnat resurslarining 45 foizi ayollar hissasiga to‘g‘ri kelishini nazarda tutsak, ijtimoiy masalalarning aksariyati ular hayoti bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois yurtimizda faol tadbirkorlikni rag‘batlantirish, investitsiyaviy iqlim va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash orqali yangi ish o‘rinlari yaratishga qaratilgan izchil chora-tadbirlarning samarasi beqiyos. Eng asosiysi, oila va jamiyat tayanchi bo‘lgan opa-singillarimizning hayotdan rozi bo‘lishiga erishish va ertangi kunga ishonchini kuchaytirishga zamin yaratish davlatimiz siyosatining asosiy maqsadi. Ayollari shodumon mamlakatda esa ertangi kunga ishonch mustahkam bo‘ladi, baxtiyor ona bag‘rida baxti to‘kis farzandlar kamolga yetadi. Baxtiyor avlod esa ertamizning munosib davomchisi bo‘ladi, ezgu niyatlarimizni ro‘yobga chiqaruvchi yetakchi kuch bo‘lib maydonga chiqadi.

## Insoniyat ekologik muammolar qarshisida

Hech kimga sir emas, bugungi kunda dunyoda keskin ekologik vaziyat kuzatilmoqda. Ana shunday murakkab sharoitda Orol dengizi fojiasiga qarshi kurashni davom ettirayotgan Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylanmoqda. Global muammo bo‘lgan Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etish yo‘lida O‘zbekiston o‘z imkoniyatlari darajasida harakat qilmoqda. So‘nggi yillarda Orol dengizining qurigan tubida 1,7 million gektar maydonda qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklardan iborat yashil hududlar barpo etildi. Ammo fojia ko‘lami shu qadar kengki, uni kamaytirishga bitta davlatning imkoniyatlari yetmaydi. Bu sa’y-harakatlarni davom ettirish uchun Prezidentimiz nutqida aytilganidek, xalqaro hamjamiyatning qo‘llab-quvvatlashi juda muhim.



Bugun zamonamizning yana bir og‘riqli masalasi global miqyosdagi suv tanqisligi xavfidir. Keyingi 30 yilda mintaqamizda havo harorati bir yarim darajaga ko‘tarildi. Bu — dunyodagi o‘rtacha isishdan ikki karra ko‘p. Ushbu tendensiya saqlanib qolsa, yaqin yigirma yilda mintaqamizdagi ikkita yirik daryo — Amudaryo va Sirdaryo oqimi 15 foizga qisqarishi mumkin. Jon boshiga suv bilan ta’minlanish darajasi 25 foizga, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi esa 40 foizga kamayishi kutilmoqda. Muzliklarning erishi, tabiiy ofatlar, shuningdek, shiddatli demografik o‘sish, urbanizatsiya jarayonlari va sanoatlashuv natijasida yuzaga kelayotgan texnogen omillar tufayli mintaqada suv va ekologiya bilan bog‘liq vaziyat yomonlashib borayotgani va uning oqibatlari xavotir uyg‘otmay qolmaydi.

Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko‘ra Markaziy Osiyoning ayrim mintaqalarida 2040-yilga borib suv resurslariga bo‘lgan ehtiyoj uch barobar oshadi. Vaqt o‘tishi bilan iqtisodiy zarar yalpi mintaqaviy mahsulotning 11 foiziga yetishi mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra, hozirning o‘zidayoq mintaqa davlatlari suv resurslari taqchilligi va undan samarasiz foydalanish oqibatida yiliga 2 milliard dollargacha mablag‘ yo‘qotmoqda. Bu oxir-oqibatda oziq-ovqat bo‘hronini keltirib chiqarishi mumkin. Agar o‘z vaqtida ta’sirchan choralar ko‘rilmasa, ushbu muammolar oqibatlari mintaqamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka jiddiy putur yetkazadi.

Shu nuqtai nazardan davlatimiz rahbari ***Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining Suv resurslari bo‘yicha maxsus vakili lavozimi ta’sis etilishi***ni qo‘llab-quvvatlashini bildirdi. Chunki Markaziy Osiyoda suvni tejaydigan texnologiyalar platformasini yaratish jarayonida ***“Birlashgan Millatlar Tashkiloti — suv resurslari” mexanizmi***ni ishga solib, eng ilg‘or texnologiyalarni jalb etish va tatbiq qilish muhim vazifa.

Shu o‘rinda, mamlakatimizda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha katta miqyosdagi chora-tadbirlar amalga oshirilayotganini ta’kidlash joiz. Oxirgi 7 yil mobaynida mamlakatimizda sug‘oriladigan yerlarning to‘rtdan bir qismini tashkil etadigan 1 million gektardan ortiq maydonlarda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy qilindi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida ham suvni tejash bo‘yicha milliy dasturni ishlab chiqish rejalashtirilgan. Shuningdek, ***2024-yili Samarqandda o‘tkazilishi rejalashtirilayotgan Xalqaro iqlim forumi*** doirasida jahonning yetakchi kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan suvni tejash borasidagi texnologiyalar ko‘rgazmasi ham mintaqa davlatlari uchun bu borada qulay muloqot maydoni vazifasini o‘taydi.

Prezidentimiz ***Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo‘lida hamjihatlik” rezolyutsiyasi***ni qabul qilish tashabbusini ilgari surdi. Mintaqamiz xalqlarning manfaatlariga, farovonligiga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan ushbu rezolyutsiyaning asosiy mazmunini kelgusi yil Samarqandda bo‘lib o‘tadigan xalqaro iqlim forumida muhokamadan o‘tkazish taklif etildi. Ekologiyaga oid tashabbuslar ro‘yobi, albatta, O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini iqlim o‘zgarishlariga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va “yashil” energetika ulushini keskin oshirish kabi strategik maqsadlar ro‘yobiga xizmat qilishiga shubha yo‘q.

## Xavfsizlik — taraqqiyot kaliti

Xavfsizlik masalalari xalqaro hayotning kun tartibida. Ekstremizm balosi tarqalishi, yoshlarning radikallashuvi muammosi butun dunyo uchun boshog‘riqqa aylangan. Muammoni bir davlat alohida yecha olmaydi. Buning uchun hamjihatlik va hamkorlik zarur.

O‘tgan yil mart oyida Toshkentda Birlashgan Millatlar Tashkilotining terrorizmga qarshi global strategiyasini Markaziy Osiyoda amalga oshirish bo‘yicha qo‘shma harakatlar rejasi qabul qilingani bu boradagi muhim qadam bo‘ldi. Aytish joizki, O‘zbekistonning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha Milliy strategiyasi mavjud bo‘lib, u ilgari ekstremizm g‘oyalari ta’sirida bo‘lgan shaxslarni sog‘lom hayotga qaytarish va jamiyatga moslashtirishdan iborat. Shu strategiya doirasida mamlakatimizda besh marta “Mehr” insonparvarlik missiyasi o‘tkazildi — 530 nafardan ziyod fuqarolar, avvalo, ayollar va bolalar Yaqin Sharq va Afg‘onistondagi qurolli nizolar hududlaridan yurtimizga qaytarildi. Ularning barchasiga tibbiy, psixologik, ijtimoiy va boshqa yordamlar ko‘rsatildi. Mazkur yo‘nalishdagi harakatlarni davom ettirish va doimiy tajriba almashishni yo‘lga qo‘yish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi shafeligida urush hududlaridan qaytganlar bilan tizimli ishlash bo‘yicha Mintaqaviy ekspertlar kengashini tuzishga qaratilgan amaliy qadamlar tashlandi.

Afsuski, bag‘rikenglik, tinchlik dini bo‘lgan dinimizga nisbatan dunyoning ayrim mamlakatlarida noto‘g‘ri tasavvurlar paydo bo‘lgan. Natijada muqaddas Qur’oni karimni yoqish holatlari kuzatildi va kuzatilmoqda. Davlatimiz rahbari turli din vakillari, sivilizatsiyalar o‘rtasiga nifoq solishga qaratilgan, ayrim mamlakatlarda ko‘zga tashlanayotgan diniy toqatsizlik, islomofobiya holatlariga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini yodga oldi. Jahon miqyosida dinlararo bag‘rikenglik va hamjihatlik g‘oyalarini keng targ‘ib etish maqsadida ***O‘zbekistonda YUNESKO shafeligida Dinlararo muloqot va bag‘rikenglik xalqaro markazini tashkil etish***ni taklif qildi. Bu bejiz emas. O‘lkamiz — jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan, islomni ilm-ma’rifat va tinchlik dini sifatida namoyon etgan Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy singari ulug‘ alloma va mutafakkirlar Vatani. Shunday buyuk olimlarning boy merosini o‘rganish, islomning asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish ***maqsadida 2024-yil O‘zbekistonda “Islom — tinchlik va ezgulik dini” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazish*** tashabbusi ilgari surildi.

So‘zimizni muxtasar qiladigan bo‘lsak, Prezidentimiz tomonidan yuksak minbardan bildirilgan taklif va tashabbuslar mintaqada va dunyoda mustahkam tinchlik va farovonlikka, o‘zaro ishonch, birdamlik va hamkorlik ruhi qaror topishiga xizmat qiladi. “Forbes” jurnali e’tirof etganidek, Shavkat Mirziyoyev mintaqada biznes, chegara va savdo ochilishini faollashtirib, Markaziy Osiyo mamlakatlarini integratsiyalash harakatlarida markaziy shaxsga aylandi. O‘zbekiston esa Shavkat Mirziyoyev rahbarligida Sharq va G‘arb, Shimol va Janubni bog‘lovchi yirik transport markaziga aylanishga intilmoqda.

**Qalandar ABDURAHMONOV,**
**akademik.**

# O‘ZBEKISTON PREZIDENTI TOMONIDAN ILGARI SURILGAN TAKLIFLARNING HAYOTGA TATBIQ ETILISHI HOZIRGI MURAKKAB GEOSIYOSIY DAVRDA IJOBIY NATIJALARGA OLIB KELISHI ANIQ

← 1

O‘zbekiston rahbari o‘z nutqida ishonch inqirozi tufayli dunyodagi mavjud vaziyatdan xavotirda ekanini ham ta’kidladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev hamjihatlik ruhini saqlab qolish va mamlakatlarni umumiy manfaatlar asosida birlashtirishga umid bildirgan holda iqlim o‘zgarishi, qashshoqlikka barham berish va ochlik kabi butun insoniyatga daxldor global masalalarda birdamlik va hamkorlikka chaqirdi.

**Chen YUSZUN,**
**Xitoy Xalqaro muammolar akademiyasining Yevroosiyo instituti direktori o‘rinbosari:**

— Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida nutq so‘zlab, global muammolarga o‘z munosabatini bildirdi, shuningdek, ijtimoiy himoya, xavfsizlik, ekologiya, ta’lim sohalariga doir qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Davlat rahbari bugungi kunda mamlakat aholisining yarmidan ko‘pini tashkil etuvchi yoshlar masalasiga alohida e’tibor qaratdi. Bu tasodifiy



hol emas. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda bu borada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, bugungi kunda O‘zbekiston yosh avlodni turli ekstremistik va terroristik guruhlar ta’siriga tushib qolishining oldini olish, shuningdek, yoshlarning ulkan salohiyatini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha mintaqaviy loyihalarni faol ravishda ilgari surmoqda.

Masalan, yaqinda Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining beshinchi Maslahat uchrashuvida O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan yoshlar siyosatining umumiy yo‘nalishlari to‘g‘risidagi bitim imzolandi.

Shu munosabat bilan nafaqat O‘zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyoda yoshlarning rivojlanishiga ko‘maklashish mintaqa xalqlarining barqarorligi va farovonligining kaliti hisoblanishini ta’kidlashni istar edim. Bu inson kapitaliga asoslanadi, uning rivojlanish darajasi esa Markaziy Osiyodagi mamlakatlarning kelajagini belgilaydi.

**Den XAO,**
**SHO‘T tadqiqotlari institutining direktori:**

— So‘nggi yillarda O‘zbekiston tizimli o‘zgarishlar davrini boshidan kechirmoqda, keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishda katta muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritmoqda.



Dunyoda qashshoqlik darajasini pasaytirish, aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yaxshilash, ta’lim tizimini modernizatsiyalash va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi muvaffaqiyatlar qadrlanadi.

O‘zbekiston rahbarining butun insoniyat uchun xavf-xatar va tahdidlarning misli ko‘rilmagan darajada ko‘payishi bilan bog‘liq zamonaviy global jarayonlarga bergan bahosi alohida ahamiyatga ega. Prezident Shavkat Mirziyoyevning geosiyosiy qarama-qarshiliklar butun insoniyat taqdiriga daxldor masalalarda ham muloqotga putur yetkazayotgani haqidagi bayonotiga qo‘shilmaslik aslo mumkin emas.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston rahbarining jahon hamjamiyatini qanday sayyorani kelajak avlodlarga qoldirishimiz haqida o‘ylashga chaqirig‘i muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, bugungi kunda o‘zaro ishonch, hamjihatlik va hamkorlik har qachongidan ham zarur.

**Xarli SEYDIN,**
**“Janubiy Xitoydagi Amerika savdo palatasi” prezidenti, doktor:**

— Bugungi kunda Markaziy Osiyo jadal rivojlanayotgan mintaqalardan biriga aylanmoqda. Ayni jarayonda O‘zbekiston milliy manfaatlarni



faol ilgari surayotgani, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik muammolariga katta e’tibor qaratgan holda ularning hal etilishi yuzasidan astoydil jonkuyarlik qilayotgani bilan ajralib turadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida Markaziy Osiyoni tinch va farovon mintaqaga aylantirish bundan buyon ham O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor maqsadi bo‘lib qoladi, degan so‘zlari bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Ishonchim komilki, O‘zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarning amalda hayotga tatbiq etilishi jahon iqtisodiyotining barqaror o‘sishi sekinlashgan hozirgi murakkab geosiyosiy davrda aniq-ravshan ijobiy natijalarga olib keladi.

**“Dunyo” AA.**
Pekin

# EZGU NIYATLARNING MUSTAHKAM POYDEVORI

Manbalarda haqiqiy mo'min boshqalarga qo'li bilan ham, tili bilan ham ozor bermasligi kerakligi uqtiriladi. Bir hadisi sharifda keltirilishicha, sahobalardan biri Nabiy sollallohu alayhi vasallamning oldiga kelib, "Ey Allohning Rasuli, qaysi musulmon afzal sanaladi?" deb so'radi. Shunda u zot: "Haqiqiy musulmon tili va qo'lidan boshqa musulmonlar salomat bo'lgan kishidir", deb javob berdi.

Binobarin, qaysi dinga mansub bo'lmasin, odamlar inson bo'lgani uchun hurmat qilinadi, himoya etiladi va har biri o'z huquqlariga ega bo'ladi. Qisqacha aytganda, dinimiz — bag'rikenglik dini. Bu tushuncha bugun davlatimiz siyosatida ham muhim o'rin olayotganini alohida ta'kidlash joiz.

Prezidentimizning oliy minbardan turib jahon miqyosida dinlararo bag'rikenglik va hamjihatlik g'oyalarini keng targ'ib qilish maqsadida O'zbekistonda YUNESKO shafeligida Dinlararo muloqot va bag'rikenglik xalqaro markazini tashkil etish taklifi ham bejiz emas. Chunki keyingi yillarda O'zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o'rtasida mushtarak an'analarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda va bu borada dunyo mamlakatlariga namuna bo'layotganini ham qayd etish darkor.

Hozirgi davrda turli diniy konfessiyalar o'rtasida o'zaro bir-birini tushunish, muloqot qilish va ahil-inoq yashash tinchlikni qaror toptirishning bosh omili bo'lmoqda. Qur'oni karimda ham Haq taolo: "Ey, insonlar! Darhaqiqat, Biz sizlarni bir erkak (Odam) va bir ayol (Havvo) dan yaratdik hamda bir-birlaringiz bilan tanishishingiz uchun sizlarni (turli-tuman) xalqlar va qabila (elat) lar qilib qo'ydik..." (Hujurot, 13), deb xitob qiladi.

Ma'lumki, davlatimiz rahbari 2017-yil 19-sentabrdagi BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ham "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiya qabul qilish tashabbusi bilan chiqqandi. Binobarin, O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan loyiha BMTga a'zo davlatlar tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlangan. Rezolyutsiya nafaqat BMTning barcha a'zo mamlakatlari tomonidan, balki 50 dan ortiq davlatlar hammualliﬂigida qabul qilingan edi.

Bu O'zbekistonda turli millat va elatlar, diniy konfessiyalar vakillari o'rtasidagi ahil-inoqlik, hamjihatlikni ta'minlash, tinchlik-osoyishtalik, barqarorlikni saqlash yo'lida oqilona islohotlar va amaliy chora-tadbirlar olib borilayotgani barobarida mamlakatimiz jahonda bag'rikenglik targ'ibotchisi va tashabbuskori bo'layotganidan dalolat.

Yurtboshimizning mazkur Assambleyadagi yana bir muhim tashabbusi 2024-yilda O'zbekistonda "Islom — tinchlik va ezgulik dini" mavzuida xalqaro konferensiya o'tkazish taklifi bo'ldi. Diyorimiz jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo'shgan, islomni ilm-ma'rifat va tinchlik dini sifatida namoyon etgan Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy singari ulug' alloma va mutafakkirlar Vatanidir. Buyuk olimlarning boy merosini o'rganish, islomning asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish bugungi kun uchun g'oyat dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugun taraqqiyotning yangi bosqichida tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avloddan-avlodga qoldirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Zero, muborak dinimizning asl insonparvarlik mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, milliy qadriyatlarimizni, aziz avliyolarimizning xotirasini tiklash, bebaho merosini o'rganish, qadamjolarini obod qilish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar O'zbekistonni ilm-fan, madaniyat, ma'rifat markaziga aylantirishdek ezgu niyatlarga, yuksak maqsadlarga poydevor bo'lmoqda.

Ushbu chiqishda davlatimiz rahbari "Biz ekstremizm balosi tarqalishiga, yoshlarning radikallashuviga yo'l qo'ymaslik uchun birgalikdagi harakatlarimizni kuchaytirishimiz zarur", deb ta'kidladi. Mazkur yo'nalishda avvallari ekstremizm g'oyalari ta'sirida bo'lgan shaxslarni sog'lom hayotga qaytarish va jamiyatga moslashtirish masalasiga alohida urg'u berildi. Jumladan, besh marta "Mehr" insonparvarlik missiyasi o'tkazilgani, 530 nafardan ziyod fuqarolar, avvalo, ayollar va bolalar Yaqin Sharq va Afg'onistondagi hududlardan yurtimizga qaytarilgani Prezidentimiz nutqida alohida ta'kidlandi. Ushbu shaxslarning barchasiga tibbiy, ruhiy, ijtimoiy va boshqa yordamlar ko'rsatilganiga e'tibor qaratildi.

Mana shunday taklif va tashabbuslar sessiya qatnashchilari, delegatsiyalar a'zolari va siyosiy yetakchilar tomonidan iliq kutib olindi. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining nutqini BMT Bosh kotibi yuksak baholab, unda bildirilgan takliflar, tashabbuslar dolzarb global va mintaqaviy muammolarga yechim topishda muhim ahamiyatga egaligini, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlashini urg'uladi.

Alloh taolo yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni bardavom aylasin va dunyoda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirsin!

**Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR,**
**O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy.**

# EKOLOGIYA VA SUV RESURSLARI MUAMMOSI JAHON HAMJAMIYATI E'TIBORIDA

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash har qanday davlatning barqaror rivojlanishining muhim omilidir. Hozirgi vaqtda dunyoda keskin ekologik vaziyat kuzatilib, iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillik yo'qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchaymoqda. Ana shunday murakkab sharoitda Orol dengizi fojiasiga qarshi kurashni davom ettirayotgan Markaziy Osiyo iqlim o'zgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylanmoqda.

To'g'ri, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlariga qarshi kurashish, transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonini kengaytirish, atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, ayniqsa, suv resurslaridan samarali foydalanish masalalari sohasida ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Global muammo bo'lgan Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etish yo'lida O'zbekiston o'z imkoniyatlari darajasida sa'y-harakat olib bormoqda. So'nggi yillarda Orol dengizining qurigan tubida 1,7 mln. gektar maydonda qurg'oqchilikka chidamli o'simliklardan iborat yashil hududlar barpo qilindi. Bu sa'y-harakatlarni davom ettirish uchun xalqaro hamjamiyatning qo'llab-quvvatlashi juda muhim. Zotan, Orol dengizi ekologik inqirozining oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni izchil davom ettirish jahon hamjamiyati, shu jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir.

Urg'ulash joiz, O'zbekiston o'zi ushbu yo'nalishdagi aniq loyihalarni amalga oshirishda peshqadamlik qilayotgani barobarida, ayni jarayonga xalqaro hamjamiyatni ham jalb etmoqda. Jumladan, Orol dengizi havzasida suv resurslarini birgalikda boshqarish, foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha hamkorlik borasida qator shartnomalar hamda bitimlar imzolandi. O'zbekiston tomonidan Orolbo'yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, aholining turmush darajasini yaxshilash bo'yicha keng miqyosli loyiha va dasturlar amalga oshirildi.

Ta'kidlanganidek, ekologik muammolarga o'z vaqtida ta'sirchan choralarni ko'rmasak, ushbu muammolar oqibatlari mintaqamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka jiddiy putur yetkazadi.

Davlatimiz rahbari BMT Bosh kotibining Suv resurslari bo'yicha maxsus vakili lavozimi ta'sis qilinishini qo'llab-quvvatlagan holda Markaziy Osiyo suvni tejaydigan texnologiyalar platformasini yaratish jarayonida "Birlashgan Millatlar Tashkiloti — suv resurslari" mexanizmini ishga solib, eng ilg'or texnologiyalarni tatbiq qilish tarafdori ekanini qayd etib o'tdi.

Ma'lumotlarga qaraganda, hozir Yer yuzidagi daryolarning deyarli yarmi ifloslangan, resurslar tugab boryapti. Ichki suv havzalari, ayniqsa, daryolar shu qadar ifloslanganki, ular tabiiy yo'l bilan o'zini o'zi tozalay olmayapti. Bunday suvlar nafaqat iste'mol uchun, balki sanoat ehtiyojlari uchun ham yaroqsiz bo'lib qolayotir. Chuchuk suv manbalari ifloslanishi va suv tanqisligi katta iqtisodiy qiyinchilik bilan birga, aholi salomatligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda dunyoning 40 dan ortiq mamlakatlarida 2 milliarddan ziyod aholi suv tanqisligini sezmoqda. BMT bahosiga ko'ra, qariyb 1,5 mlrd. kishi toza ichimlik suvidan foydalana olmaydi, 2,3 mlrd. odam esa sanitar talab darajasiga mutlaqo javob bermaydigan suvni iste'mol qilishga majbur. Achinarlisi, har kuni 2 million tonnadan ko'p chiqindi suv havzalariga tashlanadi.

Aytish joizki, O'zbekiston Prezidenti deyarli har bir chiqishida, nufuzli xalqaro anjumanlarda ekologik tahdid va xatarlar ortib borayotganini ta'kidlab, "yashil" taraqqiyot, cho'llanish va tuproq tanazzuliga qarshi kurashish, ekologik loyihalarni jadallashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib keladi.

Mamlakatimizda suv resurslaridan tejamli foydalanish yo'nalishidagi davlat siyosatining natijasi o'laroq foydalanilayotgan suvlarning umumiy miqdori o'tgan asrning 90-yillaridagiga nisbatan yiliga 64 mlrd. kub metrdan o'rtacha 51 mlrd. kub metrgacha kamaytirilib, 1 gektar sug'oriladigan maydonga 18 ming kub metr suv ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunda bu raqam 10 ming kub metrni tashkil etmoqda. Ushbu ko'rsatkichni yanada kamaytirish borasida ishlar jadallik bilan olib borilmoqda.

Yashil taraqqiyot dasturi doirasida tizimli hamkorlikni rivojlantirish iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq tahdidlarning oldini olishga qaratilgandir. Shu jihatdan, Prezidentimiz nutqida "Markaziy Osiyo iqlim muloqoti"ni joriy etish, BMT Bosh Assambleyasining "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamjihatlik" rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusi ilgari surildi. Shu bilan birga, O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini iqlim o'zgarishlariga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va "yashil" energetika ulushini keskin oshirish biz uchun strategik vazifa bo'lib qolishi qayd etildi.

Hech shubhasiz, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish, inklyuziv "yashil o'sish"ga o'tish, suvdan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash bundan keyin ham ko'p tomonlama hamkorlikning ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi. Binobarin, qurg'oqchilik yil sayin avj olayotgan, har yili millionlab unumdor yerlar qishloq xo'jaligi aylanmasidan chiqib ketayotgan, energiya tanqisligi ortayotgan, tabiiy resurslar, biologik xilma-xillik keskin qisqarayotgan, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari yaqqol namoyon bo'layotgan bir davrda dunyo davlatlarining "yashil" iqtisodiyot yo'lidagi hamkorligi barqaror rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etishi, shubhasiz.

**Boriy ALIXONOV,**
**Oliy Majlis Senati Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi.**

# HAMKORLIK TARAQQIYOTGA KENG YO'L OCHADI

Darhaqiqat, oxirgi yillarda mamlakatimiz bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish borasida muayyan ishlar olib borilmoqda. Natijada yil boshidan buyon O'zbekistonning YI mamlakatlari bilan tovar aylanmasi hajmi 35 foizga oshdi. Yevropaning yetakchi kompaniyalari bilan birgalikda yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilayotgani, muhim madaniy tadbirlar uyushtirilayotgani, albatta, ikki tomonlama munosabatlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Bugun yangi O'zbekiston — iqtisodiy munosabatlar va dunyoqarashni jahonga keng namoyon etayotgan davlat hamdir. Shu bois mamlakatimizda so'nggi yillarda iqtisodiyotni isloh qilish borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida bozor mexanizmlari bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Prezidentimizning tashrif doirasida dunyoning yirik xalqaro kompaniyalari bilan uchrashuvlari shu nuqtai nazardan yanada samarali bo'ldi. Chunonchi, "Air Products" kompaniyasi boshqaruvi raisi, prezidenti va bosh ijrochi direktori Seyfi Gasemi bilan muloqotda mazkur kompaniyaning O'zbekiston uchun qiymati 10 mlrd. dollardan ziyod bo'lgan yangi investitsiya dasturini amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Albatta, bu AQSHning yetakchi ishlab chiqarish subyekti bilan strategik sheriklikni yanada kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ochiq va konstruktiv muloqot, barcha sohada samarali hamkorlikni kengaytirish dunyo mamlakatlari taraqqiyoti uchun birdek ustuvor masalalardan sanaladi. Shu o'rinda "C5+1" formati haqida to'xtaladigan bo'lsak, ushbu muloqot 2015-yilda ta'sis etilgan bo'lib, uning birinchi yig'ilishi Samarqand shahrida tashqi ishlar vazirlari ishtirokida o'tkazilgandi. Ayni paytda ushbu format tobora takomillashib, Prezidentlar uchrashuvi darajasiga ko'tarilganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Chunki sammitda savdo-iqtisodiy sheriklikni kengaytirish istiqbollari, "yashil" taraqqiyot, energetika xavfsizligini ta'minlash va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy qilish, mintaqaviy xavfsizlik, terrorizm va transchegaraviy jinoyatchilikka qarshi kurashish sohalarida hamkorlik masalalari muhokama qilinmoqda. Shu nuqtai nazardan, AQSH va Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchilarining "C5+1" formatidagi birinchi sammitida ishtirok etgan davlatimiz rahbari Markaziy Osiyo mintaqasida do'stlik, o'zaro anglashuv va sheriklik munosabatlari mustahkamlanib borayotgani, bu keng hamkorlik uchun yangi va noyob imkoniyatlar yaratayotganini yuksak baholadi.

Uchrashuvda mintaqa mamlakatlari va AQSH o'rtasidagi o'zaro anglashuvni yanada chuqurlashtirish va amaliy sheriklikni kengaytirish yuzasidan bir qator kelishuvlarga erishildi.

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasi tadbirlari doirasida Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Jozef Bayden bilan uchrashdi. Bilamizki, AQSH dunyoda kuchli iqtisodiy salohiyatga ega mamlakat. Shu bois so'nggi yillarda ikki tomonlama munosabatlar va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ishlar tizimli amalga oshirilmoqda. AQSHning yetakchi kompaniya va banklari bilan amaliy hamkorlik doirasida bir qator loyihalar ro'yobga chiqarilyapti.

O'z navbatida, AQSH Prezidenti mamlakatimiz mustaqilligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligini hamda yangi O'zbekistonda amalda oshirilayotgan va muqarrar tus olgan islohotlar siyosatini qat'iy qo'llab-quvvatlashini bildirdi. Qolaversa, "Forbes" jurnali AQSH Prezidenti Jozef Baydenning yangi geostrategik tashabbusida O'zbekiston Prezidentining muhim rolini ta'kidlagani diqqatga sazovor. Bu ham mamlakatimizning dunyoning taraqqiy etgan davlatlari bilan teng huquqlilik asosida mustahkam hamkorlik o'rnatayotganidan dalolat beradi.

Qayd etish joiz, keyingi yillarda O'zbekiston va BMT o'rtasidagi hamkorlik yuksak darajada rivojlanmoqda. O'zaro hamkorlikda qariyb 140 ta dastur va loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilyapti. Xususan, O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 6 ta rezolyutsiyasi qabul qilindi, jumladan, hozirda Orolbo'yi mintaqasi aholisini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun maxsus Trast fondi faoliyat yuritmoqda. Ushbu rezolyutsiyani ishlab chiqishda dunyodagi nufuzli davlatlar, jami 50 mamlakat hammuallif sifatida ishtirok etgani bu tashabbus jahon hamjamiyatida qanday katta qiziqish uyg'otganidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz BMTning bir qator nufuzli tuzilmalariga saylangani hamda ularning ishida faol ishtirok etayotgani bu boradagi amaliy ishlar natijasi, deyish mumkin. Shu ma'noda aytganda, Prezidentimizning tashkilot Bosh kotibi Antoniu Guterrish bilan uchrashuvi O'zbekistonning BMT bilan hamkorligini yanada kengaytirishda, eng muhimi, barqaror rivojlanish sohasidagi milliy vazifa va maqsadlarni ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman aytganda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning AQSHga tashrifi doirasida tashkil etilgan ko'plab uchrashuvlar, Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilari bilan muloqotlari dunyoda yangi O'zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va mamlakatimiz bilan hamkorlikka intilish tamoyillari kuchayib borayotganini to'la-to'kis namoyon etdi.

## Inson qadri va manfaatlari uchun

Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi, unda ilgari surilgan tashabbuslar jahon hamjamiyati tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgani O'zbekistonning xalqaro maydonda o'rni va nufuzi mustahkamlanib borayotganiga yana bir yorqin dalildir. Mazkur tarixiy nutqda huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo'lmish yangi O'zbekistonni barpo qilish siyosatini qat'iy davom ettirayotganimiz, mamlakatimiz "Inson qadri va manfaatlari uchun" degan ezgu g'oya asosida demokratiya va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tub islohotlar yo'lidan dadil borayotganiga alohida e'tibor qaratildi.

Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimizda inson huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning o'z hayotidan rozi bo'lib umrguzaronlik qilishlarini kafolatlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Buning natijasida davlat organlari faoliyatida ochiqlik va oshkoralik tobora kengayib bormoqda. Parlament a'zolari, vazir va hokimlar, barcha bo'g'indagi mansabdor shaxslar fuqarolar bilan yuzma-yuz uchrashib, ularning dard-u tashvishlari bilan qog'ozda emas, amalda jiddiy shug'ullanmoqda. Ya'ni davlat organlari, avvalo, xalq uchun, har bir fuqaro uchun ochilib, ular bilan faol muloqotni yo'lga qo'ydi. Buning samarasida hozirgi vaqtda odamlarda adolatga, haqiqatga ishonch paydo bo'lyapti.

Mamlakatimizda yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilingani, bu bo'yicha O'zbekiston tarixida birinchi marta umumxalq referendumi o'tkazilgani, shuningdek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi tasdiqlangani ushbu yo'nalishda izchil olib borilayotgan ishlarning davomi bo'ldi. Zero, referendumda ovoz berganlarning 90 foizdan ziyodi xalq Konstitutsiyasini qo'llab-quvvatladi. Bu ham mamlakatimizda demokratik islohotlar to'g'ri va odilona amalga oshirilayotgani samarasidir.

Yana bir muhim jihat — yangilangan Konstitutsiyada majburiy mehnat taqiqlanishi kafolatlab qo'yildi va buning uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. Buni so'nggi yillarda O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha erishilgan e'tiborga loyiq natijalar sifatida keltirish maqsadga muvofiq.

Prezidentimiz o'z nutqida, shuningdek, inson kapitalini rivojlantirish, kreativ yosh avlodni tarbiyalash, xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishini ta'minlash, gender tenglikka erishish, atrof-muhit muhofazasi, ekologik barqarorlikni kafolatlash, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish hamda Afg'oniston bilan bog'liq masalalarga batafsil to'xtalib, bu bo'yicha bir qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. 2024-yili BMT shafeligida "Ijtimoiy himoya: barqaror taraqqiyot sari yo'l" butunjahon konferensiyasini yurtimizda o'tkazish, BMT huzurida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha ishchi guruh tashkil etish, uning doirasida "Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi — 2030" dasturini ishlab chiqish, kelgusi yili O'zbekistonda Osiyo xotin-qizlari forumini o'tkazish kabi takliflar shular jumlasidandir.

Ayniqsa, BMT Bosh Assambleyasining "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamjihatlik" rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusi qo'llab-quvvatlangan holda, uning asosiy mazmunini kelgusi yil Samarqandda bo'lib o'tadigan xalqaro iqlim forumida muhokama qilish taklif etilgani ishtirokchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini iqlim o'zgarishlariga moslashtirish, "yashil" energetika ulushini keskin oshirish biz uchun strategik vazifa bo'lib qoladi.

Sirasini aytganda, davlatimiz rahbarining nutqi mustahkam tinchlik va farovonlikka faqat umumiy intilishlar va birgalikdagi harakatlar bilan erishishni, mamlakatimiz esa bu yo'lda BMT institutlari va barcha davlatlar bilan keng ko'lamli hamda uzoq muddatli sheriklikni chuqurlashtirishga tayyor ekanini namoyon etdi.

## Mamlakat kelajagini belgilovchi yetakchi kuch

Har jihatdan bilimli, zukko, kreativ yosh avlodni tarbiyalash — O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan strategik vazifalardan biridir. Shu bois keyingi yillarda bu bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimiz rahbari AQSHga tashrifi doirasida okeanortida yashayotgan va ishlayotgan bir guruh vatandoshlarimiz hamda ushbu mamlakatning yetakchi oliy ta'lim dargohlarida tahsil olayotgan "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiatlari bilan uchrashgani, ochiq muloqotda vatandoshlarimizning yuz-ko'zlarida ishonch porlab turgani aholimizda, ayniqsa, farzandlarini katta niyat bilan xorijda o'qitayotgan ota-onalarda faxr-u iftixor uyg'otgani, shubhasiz.

Bugun xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi bo'lgan yoshlar islohotlarimizni samarali amalga oshirishda hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqmoqda. Bu bejiz emas. Chunki aynan zamonaviy bilim olgan, ilg'or kasb-hunarlarni, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o'g'il-qizlarimiz jonajon Vatanimizni yanada taraqqiy ettirishda yetakchi o'rin tutadi.

Shu jihatdan aytganda, ochiq-oydin muloqot shaklida o'tgan tadbirda davlatimiz rahbari mamlakatimiz modernizatsiyasiga ko'maklashishda vatandoshlarimizda ulkan salohiyat borligiga e'tibor qaratdi. Ular bilan aloqalarni yanada mustahkamlash, yurtdoshlarimizning jamoat birlashmalari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, xorijda o'zbek tili kurslarini tashkil etishga keng ko'maklashish, vatandoshlar O'zbekistonning tarixiy shaharlarini ziyorat qilishi uchun maxsus turizm xizmatlari to'plamlarini ishlab chiqish rejalashtirilgani aytildi. Buni tadbir ishtirokchilari katta qiziqish bilan qo'llab-quvvatladi. O'z navbatida, ular Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqimiz farovonligini yanada oshirish, yurtimizning xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirishga xizmat qilayotganini ta'kidlashdi.

Hech ikkilanmay aytish mumkinki, bugun yoshlarimizda Vatan hissi, uning rivojiga hissa qo'shish ishtiyoqi tobora oshib bormoqda. Zotan, yangi O'zbekistonning nafasi, taraqqiyoti mana shunday vatanparvar yoshlarimizning dadil fikr va takliflariga, erishayotgan yutuqlariga bevosita bog'liq. Shunday ekan, Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashuvda vatandoshlarimiz qaratilayotgan yuksak e'tibor uchun minnatdorlik bildirib, O'zbekiston rivojiga munosib hissa qo'shishga tayyorligini ta'kidladi.

**Ravshan MAMUTOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisi.**

# SAN'AT VA DO'STLIK, ISTE'DOD VA MAHORAT BAYRAMI




Ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning II xalqaro hunarmandchilik festivali ishtirokchilariga yo'llagan tabrigini Prezident Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamentining rahbari Odiljon Abdurahmonov o'qib eshittirdi.

Tabrikda ishonch bildirilganidek, festival san'at va do'stlik, iste'dod va mahorat bayrami sifatida barcha ishtirokchilar va xalqimiz qalbida yorqin iz qoldiradi.

Aytish o'rinli, festival tadbirlarida dunyoning 70 dan ortiq davlatlaridan 200 nafardan ziyod mohir hunarmandlar, xalq amaliy san'ati namoyandalari, turizm yo'nalishida faoliyat olib boruvchi tadbirkorlik subyektlari rahbarlari qatnashmoqda. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligidan, AQSH, Turkiya, Xitoy, Yaponiya, Serbiya, BAA, Isroil kabi mamlakatlardan tashrif buyurgan mehmonlarning festival taassurotlari bir olam. Qizg'in tadbirlar jahonning ko'plab mamlakatlari OAV orqali to'g'ridan-to'g'ri namoyish etib borilayotir.

— Keyingi yillarda O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi birodarlik rishtalari tobora mustahkamlanib bormoqda, — deydi turkiyalik Kaner Karavit. — Festivalda turkiyalik hunarmandlardan 7 nafarimiz ishtirok etmoqdamiz. Yurtingizdagi tinch-osoyishta, farovon hayot shukuhi qalblarga o'zgacha xotirjamlik baxsh etayotir. O'zaro tajriba almashishda bu kabi tadbirlarning ahamiyati beqiyos.

Festival dasturi doirasida ko'hna kentda Xalqaro hunarmandchilik muzeyi o'z faoliyatini boshladi. Bu yerda jahonning 70 dan ortiq davlatlaridan olib kelingan mingdan ko'proq noyob eksponatlar jamlangan.

— Bu muzeyda jahon hunarmandlarining eng yaxshi san'at asarlari va mahsulotlari namoyish etiladi, — deydi tantanali ochilish marosimida so'zga chiqqan Jahon hunarmandlar kengashi prezidenti Saad al-Qaddumiy. — Aytish mumkinki, ushbu muzey kelgusida jahon hunarmandlari shahri maqomiga ega Qo'qonning o'ziga xos "tashrif qog'ozi"ga aylanadi.

Tadbirlar doirasida Rishton tumanida xalqaro kulolchilik forumini o'tkazish, uning doirasida Rishtonga "Jahon hunarmandlari shahri" maqomini berish masalasini ko'rib chiqish rejalashtirilgan.

Qo'qon shahrida mamlakatimizning barcha viloyatlaridan kelgan hunarmandlar, madaniyat va san'at ustalari ishtirokida ko'rgazmalar, teatrlashtirilgan badiiy tomoshalar, xalq sayillari davom etmoqda.

**Botir MADIYOROV**
**("Xalq so'zi").**

# NARXLARNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMINI LIBERALLASHTIRISH ZARUR

*Bugungi kunda respublika iste'molchilariga elektr energiyasi va tabiiy gaz uchun 14 trillion so'mdan ortiq subsidiya berilyapti. Mazkur raqam katta bo'lib,uni sohani modernizatsiyalashga sarflash orqali aholining elektr energiyasi va tabiiy gazga bo'lgan ehtiyojini to'laqonli qondirish mumkin.*

## Mushohada

Hozir vaziyat qanday? Davlat 14 trillion so'mdan ortiq mablag'ni iste'molchilarni subsidiyalashga yo'naltirmoqda. Natijada energetika tizimida modernizatsiya ishlari ko'ngildagidek ketmayapti. Buning oqibatida esa anomal sovuq yoki anomal issiq mahalida aholini energiya resurslari bilan to'laqonli ta'minlashning imkoni bo'lmayapti.

Tarmoqqa bozor mexanizmlarining joriy etilishi esa vaziyatni tubdan o'zgartiradi. Avval subsidiya uchun ajratilgan mablag'lar endi tizimni yangilashga ishlatiladi.

Bugun elektr energiyasi jami yuqori kuchlanishli 84 ta podstansiya va 11,7 ming kilometr elektr uzatish tarmoqlari hamda past kuchlanishli 1 789 ta podstansiya, 274,8 ming kilometr elektr uzatish tarmoqlari va 94 mingga yaqin transformatorlar orqali yetkazib berilmoqda. Shundan 125 ming kilometr uzunlikdagi elektr uzatish tarmoqlari, 912 ta podstansiya va 33 mingdan ortiq transformatorlar 40 yildan ziyod ekspluatatsiya qilib kelinyapti.

Shuningdek, 2027-yilga borib, 15,4 ming MVt. yangi ishlab chiqarish quvvatlarini hamda 24 ta elektr stansiyasini (11 ta issiqlik elektr stansiyasi va 13 ta gidroelektr stansiyasi) ishga tushirish rejalashtirilgan. Shunda bu bor ehtiyojni qondirishga yetadi.

Ushbu tarmoqlarni to'liq yangilash va qurish maqsadida kelgusi 7 yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan o'ta muhim vazifalar turibdi. Xususan, magistral elektr uzatish tarmoqlari, podstansiya va energiya saqlovchi (batareya) qurilmalarini qurish, eskirib qolgan elektr uzatish tarmoqlari hamda transformator punktlarini yangilash kerak.

Ammo bularning barchasini amalga oshirish uchun mablag' zarur. Yangi tariflarga o'tilishi har yili narxni subsidiyalashga ajratilayotgan katta mablag'larni sohaga yo'naltirib, mazkur ishlarni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Albatta, elektr energiyasi va gaz narxlarini shakllantirish mexanizmlarini liberallashtirish vaqti allaqachon yetib kelgan. Yangi tarif tizimiga o'tish, avvalo, Davlat byudjetidan narxni ushlab turishga yo'naltirilayotgan 14 trillion so'mdan ziyod subsidiya mablag'larining bo'shashiga olib keladi. Ushbu mablag'larni esa 30, 40 yillar, ba'zi joylarda 50 yildan buyon ishlatilib kelinayotgan va eskirgan infratuzilmani modernizatsiyalash hamda yangilashga jalb qilish imkoni paydo bo'ladi. Biroq energiyadan samarali foydalanish yo'lga qo'yilmas ekan, tizim moddiy-texnika bazasini yangilashga qanchalar e'tibor qaratilmasin, energiya manbalarini ishlab chiqarish nechog'li ko'paytirilmasin, ortib borayotgan talabni ta'minlash mushkul vazifa bo'lib qolaveradi.

Shu bois narxlarni erkinlashtirish siyosati kelgusida energiya sarfi miqdori ustidan fuqarolarning individual nazorati kuchayishiga, loqayd va samarasiz foydalanishga chek qo'yishga, tejamkorlikka olib kelishi bilan ham ahamiyatlidir.

**Doniyor G'ANIYEV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

# SANGARDAK MO'JIZASI



## HAVOSI DARDGA DAVO, GIYOHI TANGA MALHAM

1 Mazkur jarayonlardagi xayrli ishlarda, albatta, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining ham munosib o'rni bo'lib, mamlakatimizda yangi sihatgohlar barpo etish, tizimdagi sanatoriylarning moddiy-texnik negizini mustahkamlash, ularning qabul quvvatini oshirish, bu orqali mehnatkashlar va ularning oila a'zolari salomatligini mustahkamlash yo'nalishlarida tizimli ishlarni amalga oshirmoqda.

### Alpomish yurtida olamshumul bunyodkorlik

Prezidentimiz 2019-yilning kuzida Surxondaryo viloyatida bo'lganida Sariosiyo tumanidagi mashhur "Sangardak" sharsharasini borib ko'rgan va bunday bahavo joyda aholini sog'lomlashtiradigan zamonaviy sanatoriy qurish taklifini kiritgan edi. Shundan keyin Kasaba uyushmalari Federatsiyasi sa'y-harakati bilan purviqor tog'lar bag'rida ana shu sihatgoh qurilishiga tamal toshi qo'yildi. Ulkan harsang va qoyalardan iborat qiya relyefli maydonlarda murakkab tekislash ishlari olib borildi. Ayni chog'da sihatgohning zamonaviy va milliy me'moriy yechimlari hisobga olingan holda qurilish ishlari boshlab yuborildi.

Uch yil davom etgan qurilish-ta'mirlash ishlaridan so'ng sihatgoh bugungi kunda sog'lig'ini tiklovchi va hordiq chiqaruvchilar uchun shay holatga keltirildi.

"Sangardak" sihatgohining ochilish marosimida so'z olgan O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi raisi Qudratilla Rafiqov ulkan tog'lar bag'rida jahon andozalariga mos tarzda bunyod etilgan ushbu sihatgohning qurilishiga fidoyilik bilan o'z hissasini qo'shgan respublika, viloyat tashkilot va korxonalari rahbarlariga, quruvchilarga o'z minnatdorligini izhor qildi.

— Mamlakatimizda davlatimiz rahbari boshchiligida "Inson qadri uchun" degan tamoyil asosida amalga oshirilayotgan ishlar, tashabbus va loyihalar, tizimli islohotlar inson manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan, — dedi Qudratilla Rafiqov. — "Sangardak" sanatoriysining barpo etilishidan ham oddiy odamlarning manfaatlari, farovon yashashi, munosib mehnat qilishi, mazmunli hordiq chiqarishi, umrini savob ishlarga bag'ishlashini rag'batlantirish maqsadlari ko'zlangan. Prezidentimiz mustaqilligimizning 32 yilligiga bag'ishlangan tantanali bayramdagi nutqida ta'kidlaganidek, "Biz bir bo'lsak — yagona xalqmiz, birlashsak — Vatanmiz!" Ushbu muazzam inshoot ham ayni o'sha birligimiz, hamjihatligimiz mevasi o'laroq, qad rostlab turibdi. Bu esa biz birlashsak, qo'lni qo'lga bersak, ulkan maqsadlarga yetishga qodir ekanimizni yana bir bor isbotladi.

"Sangardak" sihatgohining ochilish marosimida ishtirok etgan ijodkorlar, san'atkorlar, bu yerga kelgan dastlabki dam oluvchilar — nuroniy onaxon va otaxonlar ishtirokida samimiy suhbat bo'ldi, dilbar she'rlar o'qildi, kuylar qo'shiqlarga ulandi.

— O'tgan yili Sangardakka kelganimizda qurilish ishlari yuqori sur'atda davom etayotganining guvohi bo'lganmiz, — deydi O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Yodgor Sa'diyev. — Qarang, oradan bir yil o'tib, ana shunday muhtasham koshonaning ochilish marosimida qatnashib turibmiz. Albatta, xalqimiz uchun qilinayotgan bunday g'amxo'rliklar ularning ko'nglini ko'taradi, yangi-yangi ishlarga rag'batlantiradi.

Bu yerda eng zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan xonalarni, ma'danli suv bilan davolaydigan hovuzlarni, kedr bochkasi, suv osti massaji, parafin muolajasi xonalarini ko'zdan kechirdik. Tushlik paytida 9 tandirni band qilgan mashhur oshpaz Abdumo'min Do'stovning "Mo'min tandir" taomlaridan tatib ko'rdik, tasannolar aytdik. Ancha vaqtlardan buyon sof havolardan nafas olib, ko'ngillar bunchalik yayramagan edi, juda xursandmiz.

...Ramziy tasmalar qirqildi, muhtasham va keng foyeda mehmonlarni baxshilar, "Dashnobod", "Shalola-Boysun", "Zevari" folklor ansambllari san'atkorlari qo'shiq va laparlar bilan kutib olishdi.

Tadbirda xalq amaliy san'ati mahsulotlari namoyish etildi.



### Sangardak — "Turizm qishlog'i"

Tushdan keyin mehmonlar avtobuslarga o'tirib, sihatgohdan bir necha chaqirim masofadagi sharsharaga yetib kelishdi. Bu yerda tashkil etilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ko'rgazmasi bilan tanishishdi, shirin-shakar mevalar yetishtirgan dehqonlar, mahalliy aholi bilan muloqot qilishdi.

Jannatmonand yurtimizning har bir go'shasi go'zal manzarasi, betakror tabiati bilan alohida ajralib turadi. Ayniqsa, Surxon vohasining Boysun tog'laridagi shifobaxsh suvlar, Denov, Sariosiyodagi archazorlar, Sangardak sharsharasi, Bobotog' pistazorlari, Sherobod tog'laridagi toshlarga o'yilgan qadimgi bitiklar Vatanimizning betakror ekoolamga ega ekanini ko'rsatadi.

Uzunligi qariyb yuz kilometrni tashkil qiladigan Sangardak daryosidan yo'l-yo'lakay tarqaladigan 13 ta ariqdan qishloq xo'jaligi ziroatchiligi uchun hamda ichimlik suvi sifatida foydalaniladi. Tabiati ajoyib, o'simliklar dunyosi rang-barang, hayvonot olami turfa xil bo'lgan mazkur hudud zilol suvi, minglab buloq va chashmalari bilan nom qozongan.

Sangardak qishlog'i o'zining so'lim va salqin tabiati, go'zal manzarasi bilan bugungi kunda yurtimiz va xorijiy davlatlardan ko'plab sayyohlarni o'ziga jalb etib keladi. Sangardak sharsharasini tomosha qilish uchun Turkiya, Yaponiya, AQSH, Afg'oniston, Tojikiston va boshqa davlatlardan sayyohlar tashrif buyurishadi. Ma'lumotlarga ko'ra, ushbu maskanga keluvchi turistlarning kunlik soni bahor va yoz fasllarida bir necha ming kishigacha yetadi.

Mahalliy aholi orasida Sangardak sharsharasi bilan bog'liq bir qancha afsonalar ham to'qilgan. Hisor tog' tizmalari etagidagi sharshara dengiz sathidan ikki ming metr yuqorida joylashgan bo'lib, balandligi qariyb 150, ba'zi manbalarda 200 metr deb ham keltiriladi. Yoysimon shakldagi eni 80 metrcha keladigan sharshara ulkan qoyalardan toshdan-toshga urilib, pastga shiddat bilan otiladi. Uning atrofida kishini hayratga soladigan serjilo kamalak hosil bo'ladi.

Rang-barang nabotot va turfa hayvonot olami, minglab bulog'-u chashmalari bilan nom qozongan Sangardak darasi va sharsharasini o'z ko'zi bilan ko'rib, uning kamalakrang jilolaridan ko'zi qamashib, hayratga tushmagan, sarin, jonhuzur shabadasidan vujudi rohatlanib, orom topmagan kishiga uning ta'rifini to'lig'icha yetkazib berish mushkul. Kimdir sharsharadan dur-u marjon kabi quyoshda tovlanib tushayotgan millionlab inju



zarralarini ko'z uzmay tomosha qilsa, kimdir uning sarin shabadasiga yuzini tutadi. O'zbekiston turizmining eng sayohatbop obyektlaridan biri hisoblangan sharshara Sangardakning "Turizm qishlog'i" maqomini olishida asosiy manba bo'lsa, ne ajab!

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida Sangardak qishlog'ining, xususan, maftunkor va jozibali sharsharaning atrofi obod bo'lishi, tashrif buyuruvchilarning hordiq chiqarishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi, yo'llarning ravonlashishi, bir-biridan ulug'vor masjidlarning barpo qilinishi, qisqacha aytganda, butun infratuzilmaning zamonaviy ko'rinish kasb etishi hudud qiyofasini tubdan o'zgartirdi. Bu esa o'z-o'zidan turizm rivojiga salmoqli hissa bo'lib qo'shilishi, shubhasiz.

### Maftunkor maskanlar makoni

Dunyoda tabiat tomonidan yaratilgan mo'jizalar behisob. Har birining hayratlanarli tomonlari, sir-sinoatli ko'rinishi, betakror va fusunli tonglari, orombaxsh tunlari kishini o'ziga chorlayveradi. Ayni shu ma'noda, Surxon vohasining 60 dan ziyod ziyoratgohlari joylashgan, biri-biridan maftunkor maskanlariga kelib-ketadigan odamlar oqimi qishin-yozin tinmaydi. Ularning ayrimlari ziyorat maqsadida, ba'zilari dam olish uchun bu joylarga kelishadi. So'lim tabiat, bahavo xilqat ko'ngillarga ko'tarinki kayfiyat baxsh etadi, ruhni tozalaydi.

Surxondaryo vohasidagi muqaddas ziyoratgoh va qadamjolar, sihatgohlar geografik jihatdan quyosh nuri tik tushadigan hududda, asosan, ko'pchiligi tog'lar bag'rida joylashgan bo'lib, erta bahordan kech kuzgacha ulardan odam arimaydi. Havosi ming dardga davo, zilol suvlari jonga malham, iqlimi toza, ikki-uch kun dam olgan odam bir yillik hordig'ini chiqarganday bo'ladi.

Albatta, uyushmagan holda keladigan dam oluvchilar uchun mahalliy aholi tomonidan baholi qudrat shart-sharoit yaratilgan, xizmatlar ham o'ziga yarasha. Lekin zamonaviy servis xizmatlari yo'qligi ko'pchilik xorijlik turistlarning bu xushmanzara maskanlar havosidan bahramand bo'lishini bir qadar cheklashi turgan gap edi.

Shuning uchun keyingi yillarda tabiatning bunday so'lim go'shalariga davlat miqyosida e'tibor berilib, ko'plab sihatgohlar, dam olish maskanlari qurilmoqda, ziyoratgohlar obodonlashtirilmoqda. "Sangardak" sanatoriysi bunday dam olish va sog'lomlashtirish maskanlari orasida lokomotiv bo'la oladi.

— O'ziga xos tabiati, sharsharasi va musaffo havosi bilan mahalliy hamda xorijlik sayyohlarning sevimli maskanlaridan biriga aylangan Sangardak qishlog'ida zamonaviy yechimlar asosida qurilgan bu sihatgoh nafaqat aholi salomatligini tiklash, balki ekoturizm rivojiga ham xizmat qiladi, — deydi viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi raisi Abdukarim Ahmedov. — Bugungi kunda tizimdagi sanatoriylar o'z reytingi, muolaja va usullarining xilmaxilligi, majmuaviy qulayliklarga ega ekanligi bilan nafaqat Markaziy Osiyo, balki Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va boshqa xorij mamlakatlaridagi sanatoriylardan qolishmaydi. Shuning uchun so'nggi yillarda uzoq o'lkalardan O'zbekistondagi ziyoratgohlarga, sanatoriylarga hordiq chiqarish, tomosha qilishga keladigan sayyohlar soni ham keskin ko'paydi.

### Yaxshi dam — mehnatga hamdam

Sihatgohning ilk dam oluvchilari ko'p yillar davomida turli sohalarda mehnat qilib, bugungi kunda keksalik gashtini surayotgan, o'z o'gitlari bilan yoshlarni ona Vatanga mehr-muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shib kelayotgan faxriylar ekani ham bejiz emas. Qaysi yurtda keksalar e'zozlansa, o'sha yurt boy, kelajagi porloq, qaysi yurt tinch bo'lsa, har tongi xayrli, barakali bo'ladi. Prezidentimiz tomonidan aholi salomatligiga alohida e'tibor berilayotgani, bugungi sihatgohning foydalanishga topshirilishi ham ana shu g'amxo'rlikning amaliy natijasidir.

— Ushbu sanatoriy-sog'lomlashtirish va dam olish majmuasi mahalliy aholi hamda ziyoratchilarning bir umrlik orzusini ro'yobga chiqardi, — deydi "Sangardak" MCHJ bosh direktori Zafar Muhammadiyev. — Qulay iqlim va muhitga ega bo'lgan bu manzilda xalqimiz salomatligini mustahkamlash, ularning dam olib, madaniy hordiq chiqarishi uchun barcha shart-sharoit muhayyo etilgan. Muhtasham sihatgoh bugungi tantanalardan so'ng o'z mehnatlari bilan mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan faxriylardan iborat ilk davolanuvchilarni qabul qildi.

Sakkiz qavatli "Sangardak" sanatoriysi binosida qabul va boshqaruv bo'limlari, barcha qulaylikni o'z ichiga olgan standart yotoqxonalar, zamonaviy lyuks-appartament xonalari joylashgan. Muassasa tog' iqlimi, tabiatining shifobaxsh xususiyatiga ko'ra, yuqori nafas yo'llari, allergiya, astma, asab, yurak-qon tomir, urologik, ginekologik, harakat-tayanch tizimi kasalliklarini davolashga ixtisoslashtirilgan. Uning hududida katta ko'lamdagi obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirilib, bog' va gulzorlar barpo etildi.

Sanatoriy joylashgan hudud juda bahavo va salqinligi bilan ajralib turadi. Uning to'rt tarafidan Hisor tog' tizmalari, sharqirab oqayotgan soylar ko'rinib turadi. Bu kabi bebaho tabiat ne'matlari dam oluvchilarga xushkayfiyat bag'ishlab, salomatliklarini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Sihatgohda yaratilgan shart-sharoitlar yiliga 6 ming 400 nafar fuqaroning salomatligini tiklash va sog'lomlashtirish imkonini beradi. Aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlash maqsadida "Sangardak" sanatoriysida ishlovchi malakali tibbiyot xodimlari O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining yetakchi sanatoriylarida amaliyot o'tab, tajriba va ko'nikmalarga ega bo'ldi.



### TAASSUROT

**Bibioyim YUSUPOVA, mehnat faxriysi:**

— Bir umr el-u yurt ravnaqi yo'lida ishladim. Halol mehnatim tufayli obro'-e'tibor topdim, elning hurmatini qozondim. Umuman, yoshlikda mehnat qilib, keksayganda uning rohatini ko'rish nasib etgan faxriylardan biriman.

Bugungi kunda Nukus shahar "Baxshilik" mahalla fuqarolar yig'inida Ayollar maslahat kengashi a'zosiman. Sihatgohga dastlabki dam oluvchilar sifatida kelar ekanman, azim tog'lar bag'rida bunyod etilgan bunday muhtasham saroyni ko'raman, deb o'ylamagan edim. Bu yerda yaratilgan sharoitlar Prezidentimiz, davlatimiz tomonidan xalqimizga qilinayotgan g'amxo'rliklarning yana bir ifodasidir.

**Nuriddin NURMATOV, "Nuroniy" jamg'armasi Jizzax viloyati kengashi raisi o'rinbosari, "Do'stlik" ordeni sohibi:**

— Sihatgohning ochilish marosimiga Jizzax viloyatidan besh nafar faxriy taklif etildi. "Nuroniy" jamg'armasi Sharof Rashidov tumani bo'limi rahbari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Parda Shukurov bilan men ham sihatgohning dastlabki dam oluvchilari safida ekanimizdan mamnunmiz.

Bilasizmi, bu yerda tog' giyohlaridan o'ndan ortiq shifobaxsh sharbatlar tayyorlanar ekan. Sharshara atrofidagi tog' va soylarda dorivor o'tlarning qariyb 266 turi mavjud bo'lib, ulardan salomatlikni saqlashning turli usullarini qo'llashda foydalanilar ekan. Umuman, yaratilgan shart-sharoitlar tahsinga sazovor.

**E'tibor ZOHIDOVA, mehnat faxriysi (Navoiy viloyati):**

— Bugun yurtimizda yashayotgan keksalar ham, yoshlar ham har bir kunimiz uchun shukrona aytishimiz kerak.

Men chorak asr maktab direktori bo'lib ishladim. Hozirgi kunda yurtimizdagi yangilanishlar, xususan, ta'lim sohasidagi o'zgarishlar, pedagoglarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklar haqida soatlab gapirish mumkin. To'g'risi, bir vaqtlar kimdir muallimlar bugungidek e'tibor ko'radi, desa, ishonish qiyin edi. Soha vakillari uchun keng imkoniyatlar, to'kinlik va xotirjamlik — yurtimizdagi bunday yangilanishlar inson qadr topganining yaqqol ifodasidir. Bunday hayotning qadriga yetishimiz kerak.

**Oydin BAKIROVA, mehnat faxriysi:**

— Men Andijon viloyatining Bo'ston tumanidan keldim. O'zim 28 yil tibbiyot sohasida faoliyat ko'rsatdim, hozir "Pillakor" mahalla fuqarolik yig'inida xotin-qizlar faoli sifatida "Buvijonlar maktabi"ni boshqaraman. Bu yerda mahallamizning ko'p yillar turli sohalarda faoliyat yuritib, katta hayotiy tajribaga ega, bosib o'tgan umr yo'li boshqalarga ibrat bo'ladigan xalq orasida o'ziga xos obro' va e'tibor topgan insonlar yosh qizlarimizni hayotga tayyorlashda o'z bilim va o'gitlari bilan o'rtoqlashadi.

Yana bir muhim jihat — ushbu sanatoriyning ishga tushirilishi natijasida yangi ish o'rinlari yaratilib, Xubon, Bog'cha, Kengguzar, Sangardak, Xondisa mahallalari va boshqa hududlarda yashayotgan 150 dan ziyod mahalliy aholi vakillari ish bilan ta'minlandi.

Bu joyning tanlanishiga asosiy sabab hududda o'sadigan giyohlar, tog'lar bag'ridan to'yinib chiqadigan ma'danli suvning shifobaxshligi.

— Men Oltinsoy tumanidagi "Xo'jaipok" sanatoriysidan bu yerga malaka almashishga keldim, — deydi oliy toifali shifokor Chori Diyorov. — Umumiy maydoni 3,16 gektar bo'lgan sanatoriyga 4 kilometr olisdagi tog'lar orasidan maxsus quvurlar orqali toza ichimlik suvi tortib kelindi. Sihatgoh tashxislash va davolash, salomatlikni tiklash hamda turli kasalliklarning oldini olishga xizmat qiluvchi eng so'nggi rusumdagi zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar, shuningdek, yuqori sifatli qattiq va yumshoq mebellar bilan jihozlandi. Dam oluvchilar uchun bu yerda fizioterapiya va suv bilan davolash bo'limlari, shifobaxsh tuz g'ori, laboratoriya, jismoniy tarbiya, balchiq va parafin bilan davolash, gidroaeroionizatsiya xonalari, yopiq suzish havzasi, turk hammomi faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek, kutubxona, madaniyat saroyi, tennis xonalari, mazali va darmondorilarga boy taomlar tayyorlanadigan oshxona, bolalar o'yingohlari dam oluvchilarga xizmat ko'rsatadi.

Xalqimizda "Yaxshi dam — mehnatga hamdam" degan naql bejiz tilga olinmaydi. Yaxshi hordiq chiqargan insonning ruhi tetik, jismi bardam bo'ladi. "Sangardak" sanatoriysi nafaqat aholining sog'lig'ini tiklab, munosib dam olishiga, balki yurtimizning turistik salohiyatini yanada oshirishga, milliy iqtisodiyotimizni mustahkamlashga xizmat qiladi.

...Sihatgohning ochilish tadbirida "Sangardak mo'jizasi" takror-takror tilga olindi. To'g'ri, tabiatda mo'jizalar, Yaratganning xalqimizga bergan in'omi ko'p. Aslida, ana shu mo'jizalarga sayqal berib, yangi-yangi saroy va inshootlarni bunyod qilayotgan bu yurtning qo'ligul, bag'ri bepoyon, qalbi osmon xalqi mo'jizadir. Tog'lar bag'rida chiroy ochgan "Sangardak" sihatgohi ham ana shu fidoyilik namunasi sifatida bu yerga keladigan ehtiyojmandlarga shifoyi komil ato etadi, dardiga davo bo'ladi.

**Nurulloh OSTONOV**
**("Xalq so'zi").**



Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 941. 33 088 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir D. Karimov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'zA yakuni — 22.30 Topshirildi — 01.15 1 2 3 4 5 6